

O'zbek va ispan madaniyatida minnatdorchilik bildirishda madaniy kesishuvlar va o'xshashliklar

Salaxova Dilnoza Sagdullayevna

O'zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va ispan madaniyatlarida minnatdorchilik ifodalarining madaniy-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Minnatdorchilik insoniyat muloqot madaniyatining universal unsuri sifatida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda minnatdorchilik iboralarining kundalik, rasmiy, diniy-ma'naviy va ijtimoiy kontekstdagi qo'llanishi, shuningdek, o'zbek va ispan madaniyatlaridagi umumiylik va farqlar ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: minnatdorchilik, madaniyatlararo pragmatika, muloqot madaniyati, ispan tili, o'zbek tili.

Minnatdorchilik – insoniyat muloqot madaniyatining universal unsuri bo'lib, ijtimoiy va ma'naviy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir madaniyatda minnatdorchilik ifodasi turli shakllarda namoyon bo'ladi. O'zbek va ispan madaniyatlarining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi hamda e'tiqodlari turlicha ekanligiga qaramasdan minnatdorchilik bildirishda bu ikki madaniyat o'rtasida o'ziga xos umumiylik va tafovutlar mavjud.

Tilshunoslik va madaniy pragmatikada minnatdorchilik bildirish iborolari madaniy qadriyatlarning ko'zgusi sifatida qaraladi [3]. Shu nuqtai nazardan, o'zbek va ispan madaniyatidagi minnatdorchilikni tahlil qilish ularning muloqot madaniyatidagi kesishuv va farqlarni ko'rsatib beradi.

Ispan tilida odatda oddiygina rahmat aytish “gracias” so'zi orqali ifodalanadi. Chuqur minnatdorchilik bildirish uchun esa “muchas gracias”, “muchísimas gracias”, “mil gracias” kabi iboralar qo'llaniladi. Rasmiy muloqotlarda tashakkur aytish uchun “le agradezco mucho”, “se lo agradezco de corazón” kabi ko'rinishlar keng ishlatiladi [4].

Biroq minnatdorchilik ifodasi doim ham bir xil ma'noga ega emas – u vaziyatning xususiyati va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat darajasiga qarab o'zgarib turadi.

Kundalik muloqotda do'konda xaridlarni amalga oshirgach, yo'lda kimdir boshqa bir insonga yo'l berganda yoki xizmat ko'rsatish jarayonida “gracias” deyish madaniy me'yor hisoblanadi. Bu oddiy holatlarda minnatdorchilik bildirmaslik behurmatlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Rasmiy va xizmat munosabatlarida biror xizmatchi o'z vazifasidan ortiqcha ish bajargandagina mijoz yoki hamkor tomonidan maxsus minnatdorchilik bildirish odat hisoblanadi.

Masalan, hujjat tayyorlash jarayonida xodim qo'shimcha tushuntirish bersa, o'qituvchi o'quvchiga yoki uning ota-onasiga darsdan tashqari vaqt ajratsa, shifokor bemor uchun o'z vazifasidan ortiqroq mehnat qilsa rahmat aytilish lozim, ammo xizmat vazifasi o'laroq qilingan ishlarda alohida minnatdorchilikka hojat yo'q deb qaraladi.

Ispan madaniyatida minnatdorchilik bildirish orqali nafaqat shaxsiy ehtirom, balki ijtimoiy ahamiyat ham ifoda etiladi. Masalan, biror odam jamoatda o'zini yordamchi, himoyachi sifatida ko'rsatsa, unga ochiq minnatdorchilik bildirish ijtimoiy qadriyat sifatida baholanadi, umumiy manfaat yo'lida jonbozlik ko'rsatgan insonlar jamoaviy muhitda alohida "agradecimiento" bilan qayd etiladi.

Rasmiy xatlarda minnatdorchilik bildirish ayniqsa muhim. Bu nafaqat madaniy me'yori, balki xatni javobsiz qoldirmasliklari va aynan ijobiy javobdan umid qilishni ham bildiradi va "Le agradezco de antemano su atención" ("E'tiboringiz uchun oldindan minnatdorman") kabi sermulozamat iboralar qo'llaniladi. Bunday holatlarda minnatdorchilik muloqotning rasmiy ohangini mustahkamlaydi va mulohazali munosabatni ko'rsatadi [1].

Do'stlar va oila a'zolari orasida minnatdorchilik samimiy va obrazli shakllarda ham ifodalanishi mumkin: "Eres un sol" ("Sen quyoshsan"), "Te debo una" ("Senga qarzdorman"), "Mil gracias" ("Ming bor rahmat"). Bu yerda insonlar o'rtasida nafaqat rahmat aytilish, balki shu insonni ular uchun qanchalik yaqin, qadrli inson ekanligi, unga bo'lgan mehr va hurmat ham izhor qilinadi.

Xulosa o'rnida aytilish mumkinki, ispanlarda minnatdorchilik ifoda etish madaniyati keng qamrovli va vaziyatga qarab rang-barangdir. U kundalik hayotdan tortib, rasmiy munosabatlar, xizmat sohasi, ijtimoiy holatlar va shaxsiy muloqotga qadar qo'llaniladi. Minnatdorchilik bildirish nafaqat odob me'yori, balki madaniy-ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbek xalq madaniyatida esa minnatdorchilik – nafaqat muloqotning odob qoidasi, balki islomiy qadriyatlar, urf-odat va an'analar bilan chambarchas bog'liq holatdir.

O'zbeklarda minnatdorchilik so'z orqali ham, amal orqali ham bildiriladi. U nafaqat shaxsiy muloqotda, balki ijtimoiy munosabatlarda ham katta ahamiyatga ega. Minnatdorchilik ifodalarining asosiy turlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu borada o'zbek madaniyatida eng ko'p qo'llaniladigan so'z – bu "rahmat". Minnatdorlikni kuchliroq va samimiy ifoda qilish uchun "Katta rahmat", "Cheksiz minnatdorman", "Minnatdorman", "Tashakkur" kabi iboralar ishlatiladi.

O'zbek madaniyatida chuqur minnatdorchilik bildirishda diniy motivlar ayniqsa sezilib turadi. "Alloh rozi bo'lsin", "Boringizga shukur", "Haqqingizga duodaman", "Siz menga birni berdingiz, Alloh sizga mingni bersin" kabi ifodalar insonning minnatdorligi qalbining tub-tubidan chiqayotgani hamda insonlar orasida qalban yaqinlik uyg'onganini bildiradi.

O'zbek madaniyatida qilingan biro ramal, yordam yoki xizmat naqadar katta va zarur paytda qilinganligiga qaramay Rahmat eshitganda oddiygina qabul qilmaslik odob, tarbiya va kamtarlik belgisidir. "Arzimaydi", "Yordamga doim tayyorman", "Xizmat bo'lsa bema'lol ayting" kabi jumlar orqali samimiylilik va yaqinlik ko'rsatish bu madaniyat uchun aynan xos odat.

Ijtimoiy-madaniy holatlarda minnatdorchilikni ifodalash o'zbek madaniyatida quyidagicha ifodalanadi: kundalik muloqotda, ya'ni biror harid qilganda sotuvchiga, transportda joy berganda, yo'l yoki manzilni ko'rsatib yuborishganida, biror xizmat ko'rsatilganda "rahmat" deyish – umumiy odob-axloq doirasidagi ishdir. Bu odat juda ko'p madaniyatlarga, shuningdek, ispan madaniyatiga ham xos, albatta.

Rasmiy vaziyatlarda, davlat idoralarida yoki xizmat ko'rsatish korxonalari, shaxobchalarida xizmatchi o'z vazifasidan ortiq yordam ko'rsatsa albatta alohida minnatdorchilik bildirib "Katta rahmat", deyiladi. Yozma shaklda esa: "E'tiboringiz uchun rahmat", "Yordamingiz uchun minnatdorman", deb yozish orqali tashakkur bildirish mumkin.

O'zbek madaniyatida asosan ma'naviy muhit islomiy qadriyatlarga yo'g'rilganligini hisobga olib, insonlar doimo bir-birlariga yaxshilik, hayriya va ehson qilish, yordam berish, biror mushkulini oson qilishga intiladilar, va bunga javoban odatda minnatdorlik kutmaydilar yoki evaziga biror nima umid qilmaydilar, bunga Alloh roziligi umidida qilingan savob amal deb qaraydilar. Tarbiya va odob yuzasidan yordam ko'rsatilgan inson albatta tashakkur izhor qiladi, ammo bu majburiyat yuzasidan emas, aynan samimiy va chin insoniy tuyg'ularga ega bo'lganlikdandir.

O'zbek madaniyatida qarindoshchilik va qo'shnichilik aloqalari kundalik hayotda ahamiyatli va muhim munosabat turiga aylangan. Ular o'zaro beminnat yordam ko'rsatish va xizmat qilishga odatlanganlar. Bu xatto qadriyat darajasida muhim ahamiyatga ega. Masalan, to'y, mahalla tadbirlarida yordam qilgan kishiga "Sizga qarzdor bo'lib qoldim", "Yaxshi kunlaringizda qaytaray", "To'ylaringizda xizmatdoringizda bo'laman", deyiladi. Do'stlar va tengdoshlar orasida samimiyroq iboralar ishlatiladi: "Juda qiyin paytimda yordam berding, minnatdorman", "Senga katta rahmat, do'stim" kabi.

Avval ta'kidlanganidek minnatdorchilik nafaqat og'zaki, turli yaxshi ishlar, ezgu amallar bilan ham bildiriladi. Sovg'a berish, chiroyli dasturxon yozish, mehmondorchilikka chaqirish, u haqida boshqa insonlar oldida iliq fikrlar bildirish va duo qilish insonlarning to'g'ridan-to'g'ri aytilmaydigan rahmatlaridir.

Qisqacha qilib aytganda o'zbeklarda minnatdorchilik bildirish og'zaki aytiladigan iboralar, tashakkur mazmuniga ega duolar va amaliy harakatlar orqali namoyon bo'ladi. U kundalik hayotdan tortib, rasmiy idoralar, mahalla an'analari, diniy muhit va oilaviy munosabatlarga o'z aksini topgan. Minnatdorchilik orqali hurmat, mehr-oqibat va ijtimoiy birlik mustahkamlanadi. Ispan va o'zbek madaniyatlarida minnatdorchilik bildirish insonlarning kundalik hayot tarziga aylangan har bir jabhada kerak bo'ladi, ishlatiladi.

Ammo g'arb madaniyatidan ko'ra sharqona madaniyatda bunga haddan tashqari ko'p urg'u berilgan. Sharqda insonlar o'zaro mulozamat qilishga odatlanganlar va bu asrlar osha hamon davom etib kelmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Bravo, D. (2004). Cortesía lingüística en español: estudios teóricos, descriptivos y aplicados. Estocolmo: Acta Universitatis Stockholmiensis.
3. Hernández Flores, N. (2002). La cortesía en la conversación española de familiares y amigos. Aalborg: Aalborg Universitet.
4. Haverkate, H. (1994). La cortesía verbal: Estudio pragmalingüístico. Madrid: Gredos.
5. Sagdullayevna S. D. ISPAN TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATI HAMDA TAHLILI //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 63. – №. 4. – С. 276-280.
6. Салахова Д. С. ИДЕНТИФИКАЦИЯ КУЛЬТУРНО-СПЕЦИФИЧНЫХ КОНЦЕПТОВ В ИСПАНСКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА //Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2025. – №. 19 [1]. – С. 254-261.